International scientific-methodological electronic journal
“Foreign Languages in Uzbekistan”, 2023, No 2 (49),163-183
https://journal.fledu.uz
ISSN: 2181-8215 (online)

ALISHER NAVOIY “G‘AROYIB US-SIG‘AR” DEVONIDAGI G‘AZALLAR QOFIYALARINING BADIIYATI XUSUSIDA

Qamaruddin QANET
Tadqiqotchi
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
Adabiyot va gumanitar fanlar fakulteti
Faryob universiteti
Faryob, Afg‘oniston

О ПОЭТИКЕ РИФМ В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ ДИВАНА “ГАРАЙИБ УС-СИГАР” (“ЧУДЕСА ДЕТСТВА”)

Камаруддин КАНЕТ
Исследователь
Кафедра узбекского языка и литературы
Литературно-гуманитарный факультет
Фарьябский университет
Фарьяб, Афганистан

THE POETICS OF THE GHAZALS RHYMES IN ALISHER NAVOI'S “GARAYIB US-SIGAR” DIVAN

Qamaruddin QANET
Researcher
Department of Uzbek Language and Literature
Faculty of Literature and Humanities
Faryab University
Faryab, Afghanistan qamaruddinqanet@gmail.com

UDC (UO‘K, УДК): 821.512.133Навоий7
“Ғаройиб ус-сиғар”

For citation (иқтибос келтириш учун, для цитирования): Qamaruddin Qanet. Alisher Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallar qofiyalarining badiiyati xususida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 163-183.

https://doi.org/10.36078/1684127056

Received: February 25, 2023
Accepted: April 17, 2023
Published: April 20, 2023

Annotatsiya. Qofiya — mumtoz she’rning muhim unsuri. Sharq she’rshunosligida ko‘p asrlar davomida tadqiq etilgan ushbu adabiy hodisaning muayyan ijodkor she’rlari misolida o‘rganilishi, bir jihatdan, tanlangan ijodkor she’rlari jozibasini nozikroq his qilishga ko‘maklashsa, ikkinchi tomondan, mavjud nazariy qarashlarni bugungi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan amaliyotga tatbiq etish imkoniyati va ko‘lamlarini ko‘rsatadi. Zero, mutfakkir ijodkorlar asarlarida ifodalangan ayrim hayotiy mavzular, teran falsafiy mushohadalarni ijodkor mahorati bilan bog‘lab o‘rganish hamma zamonlar uchun dolzarbdir. Muallif maqolada “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallarda qo‘llanilgan qofiyalarning barchasini izchil o‘rganib chiqib, ularning turlari va ifoda imkoniyatlari haqidagi o‘z xulosalarini bayon qilgan, qofiyaga bevosita bog‘liq bo‘lgan radiflarni sinchiklab o‘rganib, ularning g‘azal ma’no-mohiyatini idrok etishdagi imkoniyatlariga e’tiborni qaratgan. G‘azallardagi qofiyaning *mujarrad qofiya*, *murdaf qofiya* (ridfli qofiya), *muqayyad qofiya* (qaydli qofiya), *muassas qofiya* (ta’sisli qofiya) kabi turlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, radif bilan bog‘liq holda nomlanadigan besh yuztaga yaqin muraddaf g‘azallar o‘rganilib,

Copyright © 2023 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

Open Access

o‘rinli misollar bilan tushuntirilgan; e’not (luzumi moloyalzam) qofiyali g‘azallar, ma’mula yo ja’liy qofiyali g‘azallar, zuqofiyatayn baytlar, ichki va yon qofiyali g‘azallar (musajja’ g‘azallar), mahjub (hojibli) baytlar, radd ul-qofiya g‘azallar ham maxsus o‘rganilgan, ularga oid statistik ma’lumotlar berilgan.
Kalit so‘zlar: g‘azal; qofiya; qofiya turlari; radif; radif turlari; radifga bog‘liq g‘azallar.

Аннотация. Рифма является важным элементом классической поэзии. Исследование этого литературного явления, много веков изучаемого в восточном стиховедении, на примере стихов определенного автора, с одной стороны, помогает более тонко ощутить прелесть выбранных стихов, а с другой — существующие теоретические воззрения с точки зрения современного литературоведения показывают возможность и степень реализации поэтической техники. Ведь во все времена актуально изучение некоторых жизненных тем и глубоких философских наблюдений, выраженных в произведениях великих поэтов, в связи с их мастерством. В статье автор последовательно изучил все рифмы, использованные в газелях дивана “Гарайиб ус-сигар” («Чудеса детства»), высказал свое мнение об их типах и возможностях выражения, а также рассмотрел редифы, непосредственно связанные с рифмовкой, обратил внимание на их особенности при восприятии смысла и сути газели. Показаны виды рифм газелей, такие как *мужаррад*, *мурдаф, мукайяд, муассас.* Также автором было изучено и объяснено на соответствующих примерах около пятисот *газелей мураддаф*, названных так в связи с редифом; специально рассмотрены рифмованные газели_*эънот* (лузуми молоялзам), рифмованные газели *мамула* или *джа’ли*, газели *зулкафиятайн*, газели с внутренней рифмовкой — *газели мусажжа*, *газели махджуб, газели радд уль-кофия*. Представленастатистическая информация по изучаемому вопросу.
Ключевые слова: газель; рифма; виды рифм; редиф, виды редифа; газели, связанные с редифом.

Abstract. Rhyme is an important element of classical poetry. The study of this literary phenomenon, which has been studied for many centuries in Eastern poetics, on the example of the poems of a particular author, on the one hand, enables one to feel the charm of the selected author's poems more delicately and on the other hand, the existing theoretical views from the point of view of today's literary studies show the possibility and extent of implementation. After all, it is always relevant to study some life topics and profound philosophical observations expressed in the works of creative thinkers. The author has consistently studied all the rhymes used in the ghazals of the "Garayib us-sigar" collection and expressed his conclusions about their types and expressive possibilities; analysed the radifs directly related to the rhyme and paid attention to their possibilities in understanding the meaning of the ghazal. The types of rhyme in ghazals, such as abstract rhyme, murdaf rhyme (riddled rhyme), muqayyad rhyme (noted rhyme), muassas rhyme (structural rhyme) have been considered. In addition, about five hundred muraddaf ghazals named in connection with radif were studied and explained with appropriate examples; e'not (luzumi moloyalzam) rhyming ghazals, mamula or jali rhyming ghazals, zuqafiyatain (double rhyme) verses, internal and side rhyming ghazals (musjaj' ghazals), mahjub (hajibli) verses, radd ul — rhyming ghazals have been specially researched based on statistical analysis.

Keywords: ghazal; rhyme; types of rhyme; radif; types of radif; ghazals related to radif.

Kirish. Har bir se'riy asarda istifoda etilgan qofiyadosh so'zlarda shoirning ijodiy niyati ichki kechinmalariga uyg'un holda oz tajasssumini topadi. So'z hunarmandi — shoir qofiya vositasida she'rxonning diqqatini asardagi eng muhim fikrlarga qaratadi. Qofiyadosh so'zlar asarda tasvirlanayotgan badiiy timsollar ma'naviy qiyofiyasini, jumladan, ularning alohida mayl-rag'batlari, tafakkur olami, dunyoqarashi, tuyg'ulari va armonlarini yorqin aks ettirashga xizmat qiladi.

Qofiya va radif so'zlar asarning o'ziga xos uyg'unligini ta'minlaydi, uning musiqiyligi va jozibadorligiga ta'sir qiladigan muhim omillardan sanaladi. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi har bir tovush (harf) va harakat misra, bayt va bandning ta'sirchanligini oshiradi. Radif ham she'riy asar ohangi va ichki uyg'unligini ta'minlovchi muhim unsurlardan.

Qofiya ilmiga mustaqil ilm sifatida qaralsa-da, ko'pincha, u aruz ilmiga bog'lab o'rganiladi. Ayrimlarning fikricha, qofiya ilmi ham aruz ilmi kabi arablarga borib tutashadi.

"G'aroyib us-sig'ar" devoni g'azallarida muallif arab, fors tillaridan o'zlashgan va o'zbek tilidagi so'zlarni qofiya va radif sifatida qo'llagani kuzatiladi.

Ushbu g'azallardagi qofiyaning mujarrad qofiya, murdaf qofiya (ridfli qofiya), muqayyad qofiya (qaydli qofiya), muassas qofiya (ta'sisli qofiya) turlari uchraydi.

Qofiya guruhi, qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra, bir qancha turlarga ajratilib, fanda ularning adadi elliktagacha boradi, degan qarashlar mavjud. Tadqiqotlarda turkiy she'riyatda qofiyaning asosan yigirma besh turi keng qo'llanilgan, deb ta'kidlanadi. "G'aroyib us-sig'ar" devoni g'azallarida Alisher Navoiy qofiyaning yigirmadan ortiq turidan foydalangan.

Qofiyani bilish she'rni kuy va ohangida tushunishdir; qofiya ilmi sabab, she'riy asarlar, nasriy asarlarga nisbatan ko'proq o'qiladi va kitobxonning estetik zavqini oshirib, uning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qofiyaning she'riy asarda tutgan o'rni va ahmiyatini to'liq va mufassal anglash uchun qofiya ilmi, qofiya ilmining asoslari, qofiyaning tuzilishi va turlari, she'riy janrlarning qofiyaviy xususiyatlari, qofiya va radif munosibatlarini bilish zarurdir. Ayni paytda, mumtoz badiiy adabiyotni o'rganish talablariga ko'ra, arabcha xat va imloni bilish, uning ayrim yo'l-yo'riqlaridan xabardor bo'lish muhim.

Asosiy qism. Qofiya, arabcha so'z bo'lib, lug'atda "izidan borish" degan ma'noni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida baytlar yo misralarning so'nggi so'zlaridan iborat va ularning oxirgi asl harfi (tovushi) aynan bir bo'lib keladi. Bunda so'zlarning aynan qaytarilmasligi shart qilib qo'yilgan. Boshqa bir ta'rifga ko'ra, qofiya mushtarak (qo'shma) unli va undosh tovushlar yig'indisidirki, bayt yo misra oxirida qayta kelmagan so'zlarning so'ngida takrorlanadi.

Eski o‘zbek yozuv usuliga asosan, qofiyaning 9 ta asosiy harfi (ta’sis, daxil, ridf, qayd, raviy, vasl, xuruj, mazid, noira), 6 ta harakati (rassa, ishbo, hazv, tavjih, major, nafoz), va 4 ta aybi (iqvo, ikfo, sinod va ito) zikr etilgan.

Qofiya bir harf erur, sakkiz durur anga taba,
To‘rt oldin to‘rt keyin bu nuqta, ular doira.
Ismi, ta’sis-u daxil-u ridf-u qayd so‘ngra raviy,
So‘ngida vasl-u xuruj-u ham mazid-u noir (8, 167–168).

Qofiya unsurlari — qofiyadosh so‘zlarda ohangdorlikni vujudga keltiruvchi asosiy harf va belgilar, yozuvda ifodalanishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) qofiya harflari; 2) qofiya harakatlari. Qofiya harflari mumtoz poetikaga doir manbalarda *hurufi qofiya* nomi bilan keladi. Qofiyadosh so‘zlarning asosiy unsuri va asliy harfi *raviy* deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda raviy qofiyaning asosini tashkil qiluvchi va takrorlanishi shart bo‘lgan harf sifatida tilga olinadi.

“*Raviy* arabcha so‘z bo‘lib, “rivo” so‘zidan olingan, yukni tuyaga bog‘laydigan arqondan iboratdir. Istilohan, qofiyadosh so‘zlarning so‘ngida aynan takrorlanib keluvchi, unli yo undosh harfga *raviy* deyiladi. **Oh** va **goh** so‘zlarining **h** harfi — **baxt va taxt** so‘zlarining **t** harfi raviydir. Qofiya bahsida har bir harf deb anglangan unli yo undosh tovush raviy bo‘lib kelishi mumkin, zero harf nutq tovushini yozuvda ifodalash uchun qabul qilingan belgi deb ta’riflanadi”(14, 102).

1. **“Mujarrad qofiya:** qofiya hech qachon, yakka mujarrad qilib ishlatilmaydi; mujarrad qofiya demak, mutlaq va yo muqayyad qofiyaga sifat bo‘lib kelish mumkin. Qofiya raviy harfining harkatli va harakatsizligiga asosan ikki “mutlaq va muqayyad” turga bo‘linadi: a) raviydan keyingi vasl harfi bilan tugagan qofiya **mutlaq yo mavsula** deb ataladi; b) qofiya raviy harfi bilan tugallansa, **muqayyad** deb nomlanadi.

a) raviy va vasl harflar bilan tugallangan qofiya, **mutlaq mujarrad qofiya** deyiladi.

b) **muzoaf qofiya**da raviy va vasl harflaridan oldingi va keyingi harflardan ayrimlari mavjud bo‘ladi, shuning uchun ishlatilgan harfga asosan nomlanadi. Masalan, qaydga mutlaq (qayd harfli mutlaq qofiya), noyiraga mutlaq (noira harfli mavsula qofiya)… . Muqayyad qofiya ham, mutlaq qofiya kabi ikki — **muqayyad mujarrad va muqayyadi g‘ayri mujarradga** bo‘linadi.

a) qofiyada raviydan boshqa hech bir harf kelmasa, u **muqayyad mujarrad** qofiya deb (toniladi) ataladi.

b) **muqayyadi g‘ayri mujarrad qofiya:** qofiyada, raviydan oldingi qofiya harflari, sokin (harakatsiz) raviyga ilova keltiriladi, va shu keltirilgan harflarga nisbatan nom beriladi; masalan: ta’sis va daxilga muqayyad, ridfi asli va ridfi zoyidga muqayyad…” (8, 191–193).

Umuman olganda, mutlaq va muqayyad qofiyaning har biri ikki qismga ajraladi.

Mutlaq qofiya: mutlaq qofiya ikkiga bo‘linadi: 1) mutlaq mujarrad; 2) mutlaq muzoaf.

a) Mutlaq mujarrad qofiya: raviy va vasl harflari bilan tugallangan qofiya. Ushbu mavsula qofiyada, barcha vasl bo‘lib keladigan harf va qo‘shimchalar (itloq alifi — “o unlisi”, g‘ayri malfuz ho “hoi havvaz ـــهـ”, yo “i, iy”, vov va be “ub = وب”, يم، ينگ، يب… mavsul bo‘lib keladi. Vasl harfini qofiyada qaytarish va rioya qilish vojibdir. Vasl harfi keltirilgan raviyni “mavsula raviy” va yo “mavsula qofiya” deb ataydilar; masalan: “iloh**o** — podishoh**o**, yut**ub** — tut**ub**, qil**ib** — bil**ib**, qanot**im** — hayot**im**, jon**i** — xon**i**, qil**ur** — sanchil**ur**, qosh**ing** — quyosh**ing**, tut**ung** — ovut**ung**, g‘am**in** — dam**in**… (8, 179).

“I” harfi vasl bo‘lib kelgan qofiya mavjud g‘azalga misol:

*G‘unchadek qon bog‘lanibdur ko‘nglum, ey gul xirman**i**,*
*Borg‘oli ko‘z jo‘yboridin jamoling gulshan**i**.*
Ko‘z qorasidin yozay dermen bitig, hayhotkim,
*Kuydurur g‘ayratki, men mahrumu ul ko‘rgay sen**i**.*
Aql qochti ko‘nglum ichra sokin o‘lg‘ach dardi ishq,
*Mo‘r manzilgohi ermas ajdaholar maskan**i**.*
Ko‘nglum uyida g‘ami toriqmasun har zaxmidin,
*Marhamin tashlangki, har yondin ochilsun ravzan**i**.*
Arg‘uvoniy ashk aro savsan masallig lolmen,
*To to‘ningdur arg‘uvoniy, ko‘nglakingdur savsan**iy**.*
Har gul ushbu bog‘aro ko‘rsang tikan osibidin,
*G‘arqayi xunob o‘lub yuz chok erur pirohan**i**.*
Ashk qonida Navoiydur so‘ngak jismi bila
*Ul muborizkim, qizil jins ichra bo‘lg‘ay javshan**i*** (9, 451-g‘).

Ushbu g‘azal takibidagi qofiydosh so‘zlarda, **n** harfi raviy va **i** harfi vasl deb ataladi va bu qofiyani **mutlaq mujarrad yo mutlaq mavsula** deb ataydilar.

G‘azallarda “in” harfi vasl bo‘lib kelgan qofiyaga misol:

*Shavqdin ashk ichra g‘arq o‘lub, dey olmasmen g‘am**in***
*Kim tengizda gavhar istar, asramoq kerak dam**in**.*
Ayshu suhbat xaylig‘a tushkay nasimidin vabo,
*Qayda solsam zaxmi islang‘an yurakning marham**in**.*
Paykarim gardin sovurg‘udek esar hijron yeli,
*Lutf etib, ey gul, sahobi vaslning yetkur nam**in**.*
Qolib etti yangi oyni toq uchun me’mori sun’
*Qudrat ilgi bog‘lag‘an soat qoshing toqi xam**in**.*
Ko‘nglakidur choku kiz bo‘ynida fonus, ey ajab,
*Tutti ul ham sham’dek, g‘am shomi ko‘nglum motam**in**.*
Sham’ chobukluk aro lo‘liyvashimg‘a yetmadi,
*Dudidin har nechakim qildi mutarro parcham**in**.*
Motami hijronda sozedur Navoiy jismikim,
*Nolasidin zerini toqmish o‘kurmakdin bam**in*** (9).

Ushbu g‘azal takibidagi qofiyadosh so‘zlarda, **m** harfi raviy va **-in** qo‘shimchasi vasl keltirilgan va bu qofiyani **mutlaq mujarrad yo mutlaq mavsula** deb ataydilar.

b. Mutlaq muzoaf qofiya: “muzoaf qofiyada raviy va vasl harflaridan ortiq qofiyaning oldingi va yo keyingi harflaridan ayrimlari mavjud bo‘ladi. Ishlatilgan harfga asosan nomlanadi; masalan: qaydga harfi mutlaq (qayd harfli mutlaq qofiya), noiraga mutlaq (noira harfli mavsula qofiya), ridfi asliy va ridfi zoyidga mutlaq… misol uchun: “jangidan — rangidan, molini bil — holini bil, hamoyili yaxshi — tamoyili yaxshi, ochilmog‘lig‘i — sochilmog‘lig‘i… .”

“I” harfi g‘azallarda vasl bo‘lib kelgan qofiyaga misol:

*Yor bordi-yu ko‘nglumda aning noz**i** qoliptur,*
*Andoqki qulog‘im to‘la ovoz**i** qoliptur.*
Ko‘z xonasini qildi barandoxta bu ashk,
*Ko‘z bordi vale xonabarandoz**i** qoliptur.*
Ko‘nglum qushi to sunbulunguz domig‘a tushti,
*Bulbul kebi har gul sori parvoz**i** qoliptur.*
Ul qush safar aylab ne tarab gulbunin ochqay
*Kim, bog‘aro bir sarvi sarafroz**i** qoliptur.*
Men ishq rumuzin demay o‘ldum, safar etkim,
*Farhod ila Majnunning o‘kush roz**i** qoliptur.*
Taqlid qilib ko‘ngluma ishq ahli chekar oh,
*Ul bordi-yu el ichra sarovoz**i** qoliptur.*
Hijronu visolin ko‘pu oz dema Navoiy,
*Yuz shukr dekim, ko‘pi borib, oz**i** qoliptur* (9, 187-g‘).

Yuqoridagi g‘azal tarkibida keltirilgan qofiyadosh so‘zlar, **mutlaq muzoaf** deb nomlanadi, chunki bunda **z** harfi raviy, **i** harfi vasl, raviy harfidan oldingi **o** ridf deb ataladi, ya’niy raviy va vasl harfidan ortiq, ridf harfi ham kelgan. Shuning uchun ushbu qofiya **asliy ridf yo murdaf ridfga mutlaq** deb hisoblanadi. Demak, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan 5-, 17-, 66-, 133-, 159-, 340-, 349-, 362-, 637-g‘azallardagi qofiyalar aynan shu xususiyatlarga ega.

Muqayyad qofiya: muqayyad qofiya, mutlaq qofiya singari ikki turga ajraladi: a) muqayyad mujarrad. b) muqayyad g‘ayri mujarrad.

a) Muqayyd mujarrad qofiya: raviy harfi bilan tugallansa, **muqayyad mujarrad** ataladi.

*Bazm aro gar yo‘q may bila **daf**,*
*Ham yomon ermas un bila **kaf**.*
Soqiyi gulrux, boda ketur,
*Kim, manga haddin oshti **sha’af**.*
Davr ila dayr aro may chekkali,
*Chekmak necha masjid aro **saf**.*
Bodag‘a bersam jon naqdi,
*Bo‘lmoq uchundur naqd **talaf**.*
Kel berikim, yo‘q sanga vubol
*Lekin erur ko‘p bizga **sharaf**.*
Shayxi riyoyiy foniy ermas,
*Ul taraf o‘lsun, yo bu **taraf**.*

O‘qung uchun xasta Navoiy,
Ko‘zi qorasin qildi ***hadaf*** (9, 308-g‘).

Yuqoridagi g‘azaldagi qofiyada raviydan boshqa hech bir qofiya harflari ishlatilmagan, shunga asosan, **muqayyad mujarrad** deb ataladi. Demak, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan 45-, 124-, 226-, 234-, 366-, 383-, 510-, 516-, 581-g‘azallarda ham aynan muqayyad mujarrad qofiyalar qo‘llanilgan.

b) muqayyd g‘ayri mujarrad qofiya: muqayyadi g‘ayri mujarrad qofiyada, raviydan oldingi qofiya harflari, sokin (harakatsiz) raviyga ilova keltiriladi, va shu keltirilgan harflarga nisbatan nom beriladi. Misol uchun:

*Buzug‘ ko‘ngulga fano bo‘lsa kom, cheksun ra**nj**,*
*Ki, ranj chekmasa hargiz muyassar o‘lmas ga**nj**.*
Agar kishiga chekib ranj, ganj bo‘ldi nasib,
*Desa bu ganjni asray, yo‘q andin ortuq ra**nj**.*
Kishiki naqdini vazn aylabon qilur madfun,
*Bu g‘ussasanjdur, olg‘an kishi — farog‘atsa**nj**.*
Yilon kebi, ne ajab, ganj asrag‘an kishining
*Hamesha komida gar zahr erur, tanida shika**nj**.*
Zamona johi uchun har g‘ululayi tashvish,
*Ki, kelsa ko‘nglung uyini anga qilursen xa**nj**.*
Desangki, fard o‘lay eldin ko‘ngulni xoliy tut
*Ki, toq derlar agar xanj sari etsang la**nj**.*
Boshi quyidurur ozoda savsan ollinda,
*Chu nargis o‘ldi chaman maxzanida naqdulfa**nj**.*
Tariq kebi so‘yulur talxkomliq birla,
*Tarig‘tarig‘ki, yig‘ishturdi oltunin nora**nj**.*
Itur ko‘ngul haramidin xavotir asnomin,
*Navoiy, o‘lsa maqoming Madina, gar Afra**nj*** (9, 92-g‘).

Yuqoridagi qofiyada, raviydan oldin keladigan **n** qayd harfi mavjud, shunga asosan ushbu qofiya, **muqayyadi g‘ayri mujarrad** deb ataladi. Demak, 40-, 41-, 44-, 46-, 51-, 76-g‘azallardagi qofiyalar aynan shu xususiyatga ega.

1. “Murdaf qofiya (ridfli qofiya): raviy harfidan oldin keladigan cho‘ziq harf. Mumtoz poetikaga doir manbalarda uning ikki turi keltiriladi: **1) ridfi asliy** (asosiy ridf) yoki **ridfi mufrad** (yakka ridf) — raviydan oldin keluvchi cho‘ziq unli harf; masalan: “oy — boy, so‘z — o‘z, sen — men, yuz — kuz, bil — qil…” kabi so‘zlarda “o, o‘, e, u, i” cho‘ziq unli harflar ridfi asliydir. **2) ridfi zoyid** (orttirma ridf) — ridfi asliy va raviy orasida takrorlanib keluvchi undosh harf; masalan: “teng — keng, xost — rost, ong — tong” kabi so‘zlarda “n, s, n” undosh harflari zoyid ridf hisoblanadi.

Asliy ridf harfi kelmagan qofiyada, orttirma ridfning kelishi mumkin emas, chunki ridfi asliy va ridfi zoyidning birligidan “murakkab” ridf vujudga keladi.

a) ridfi asliy: asliy ridf harfi qatnashgan qofiya turi “asliy ridfga murdaf” deb yuritiladi. Orttirma (zoyid) ridf harfi qatnashgan harf “murakkab ridfga murdaf” deb yurtiladi”(15, 160—161).

“O” asliy ridf harfi bilan mufrad qilingan qofiyaga misol:

Orazin yopqach ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
Uylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.
Qut bir bodomu yerim go‘shayi mehrob edi,
*G‘orati din etti nogah bir balolig‘ko‘zu q**o**sh.*
Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
*Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr f**o**sh.*
Bo‘sae qilmas muruvvat asru qattiqdur labing
*Desam, og‘zi ichra aytur la’l ham bor nav’i t**o**sh.*
Novaking ko‘nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin
*Kim, qilur paykonini ko‘nglum bila jonim tal**o**sh.*
Umri jovid istasang fard o‘lki, bo‘ston Xizridur,
*Sarvkim, da’b ayladi ozodalig‘birla ma**o**sh.*
Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,
*Gar budur mehrob, bir-bir qayg‘usidur barcha b**o**sh* (9, 249-g‘).

Yuqoridagi qofiyada raviydan oldin keladigan “o” ridf harfi mavjud, shunga asosan, ushbu qofiya, **asliy ridfga murdaf** deb yuritiladi. “e, i, u, o‘” cho‘ziq unlilarga murdaf keltirilgan qofiyalar:

“ye” asliy ridf harfi bilan mufrad qilingan qofiyadan misol:

*Ko‘z ko‘tarman ul quyoshdin gar ko‘zum qilmoqqa r**e**sh.*
*Pashshalar yanglig‘havo uzra chekar har zarra n**e**sh* (9, 248-g‘).

“i” asliy ridf harfi bilan mufrad qilingan qofiyaga misol:

*Borg‘oningdin jon talashmoq erdi men mahzung‘a **i**sh,*
*Keldingu jonimni olding, ul borishqa bu kel**i**sh* (9, 258-g‘).

“u” asliy ridf harfi bilan mufrad qilingan qofiyadan misol:

*Ey, ko‘ngulda shahdi la’ling hasratidin yuz tesh**u**k,*
*Har teshukdur shahd zanburi uyi yanglig‘ chuch**u**k* (9, 335-g‘).

b) ridfi zoyid: orttirma (zoyid) ridf harfi qatnashgan qofiya “murakkab ridfga murdaf” deb yurtiladi. Misol: **“e+n” — asliy va zoyid (murakkab) ridf uchun misol:**

*Ikki g‘unchang ermas, ey gulchehra, t**en**g,*
*Og‘zing asru toru ko‘nglung asru k**en**g.*
Og‘zingga tegmas uzoring birla so‘z,
*Bo‘lmadi xurshid birla zarra t**en**g.*
Lolaning dog‘i bo‘lur chun o‘rtada,
*Nega tushmish orazing yonida m**en**g.*
Bo‘ldi ilgim dog‘u ko‘ksum zaxmi fosh
*Kim, tanimda to‘n yo‘qu ilgimda ye**n**g.*
Solg‘ucha olamg‘a o‘t orazni och
*Kim, jahonni kuydurur ul o‘tlug‘**en**g.*
Husn da’vosig‘a qo‘l yengdin chiqar,
*Yuz yadi bayzo chiqargandekni ye**n**g.*
Dang qilmishtur Navoiyni xumor,
*Anga tutsun bir qadah, soqiyg‘a d**en**g* (9, 344-g‘).

Yuqoridagi qofiyadosh so‘zlarda, “e” cho‘ziq unlisi asliy ridf va “n” undosh harfi zoyid ridf harflari sanaladi, asliy va zoyid ridf yonma-yon qo‘llanilganligi bois, **murdafi murakkab** deb yuritiladi.

“o‘+n” unli va undoshlariga murakkab qofiya:

*Ishq keltursa ishim dayri fano azmida **o‘n**g,*
*Xonaqah kunji havas aylamayin andin **so‘n**g* (9, 363-g‘).

2. Muqayyad qofiya (qaydli qofiya): qator undosh harflar bilan tugagan so‘zlarda, raviydan oldin, qisqa unlidan keyin kelib takrorlanuvchi unli yo undosh harf. Masala, “ranj — ganj, ayb — g‘ayb, bast — dast, zardim — parvardim, vardini — gardini” qofiyalarda “n, y, s, r, r, r” undosh va unlilar qaydidir. Qayd qatnashgan qofiya turi **muqayyad (qaydli)** qofiya deb yuritiladi.

*Buzug‘ ko‘ngulga fano bo‘lsa kom, cheksun ra**n**j*
*Ki, ranj chekmasa hargiz muyassar o‘lmas ga**n**j.*
Agar kishiga chekib ranj, ganj bo‘ldi nasib,
*Desa bu ganjni asray, yo‘q andin ortuq ra**n**j.*
Kishiki naqdini vazn aylabon qilur madfun,
*Bu g‘ussasanjdur, olg‘an kishi-farog‘atsa**n**j.*
Yilon kebi, ne ajab, ganj asrag‘an kishining
*Hamesha komida gar zahr erur, tanida shika**n**j.*
Zamona johi uchun har g‘ululayi tashvish,
*Ki, kelsa ko‘nglung uyini anga qilursen xa**n**j.*
Desangki, fard o‘lay eldin ko‘ngulni xoliy tut
*Ki, toq derlar agar xanj sari etsang la**n**j.*
Boshi quyidurur ozoda savsan ollinda,
*Chu nargis o‘ldi chaman maxzanida naqd ul-fa**n**j.*
Tariq kebi so‘yulur talxkomliq birla,
*Tarig‘tarig‘ki, yig‘ishturdi oltunin nora**n**j.*
Itur ko‘ngul haramidin xavotir asnomin,
*Navoiy, o‘lsa maqoming Madina, gar Afra**n**j* (9, 92-g‘).

Yuqoridagi qofiyadosh so‘zlarda, “n” harfi, “a” qisqa unlisidan keyin aynan takrorlanib kelgan, ta’rifga asosan “qayd” harfi deb ataladi, qayd qatnashgan qofiya turi **muqayyad (qaydli)** qofiya deb yuritiladi. Demak, 51-, 76-, 349-, 637-g‘azallardagi qofiyadosh so‘zlar tarkibida, qayd harfi mavjud.

3. “Muassas qofiya: raviy harfidan oldin bir harakatli undosh joylashgach, shu undoshdan oldin keladigan cho‘ziq “o” unlisi ta’sis vazifasini bajaradi; ta’sis harfi doimo daxil harfi bilan birgalikda bog‘lanib keladi. **Daxil harfi —** ta’sisdan keyin keluvchi birinchi undosh harf. Daxil ko‘p hollarda takrorlanadi, ba’zan esa takrorlanmasdan, ikki turli xil undosh yo unli daxil bo‘lishi mumkin. Daxil harfi butun so‘zlarda to‘liq takrorlanganda, **e’not qofiya** deb tushuniladi. Yo‘qsa ta’sis va daxil qo‘llanilgan harflar, odiy **muassas qofiya** deyiladi. Masalan: “moyil — hamoyil, tamoyil, qoyil… so‘zlaridagi “o” unlisi ta’sis va “y” unlisi daxil hisoblanadi. Ushbu

qofiya muassasligidan ortiq **e'not qofiya** deb ham ataladi. "Zohir — muhojir" so'zida, "h" va "j" ikki xil harf daxil bo'lib kelgan"(15, 160).

*Yuzungni ko'rdum emdi ko'zlarimni bog'la, ey qo**t**il*
*Ki, nogah bo'lmag'aylar o'zga yuzni ko'rgali mo**y**il.*
Kitob avroqidek bo'lg'ay musattah qolmayin davri
*G'amim toshig'a bo'lsa bir nafas to'quz falak h**o**m**m**il.*
Meni bedilning ohin o'gmakim, olamni kuydurdi,
*Hanuz ermas ko'ngulning shu'lasi bu o't aro do**x**il.*
Tanimda gul emas gulxan nishoni telbalikdinkim
*Kul o'ldum o'rtanib ishqing o'tidin, lek sen g'o**f**il.*
Labing shavqi ko'nguldin xalq ta'n aylab qachon ketsun,
*Sabodin g'unchaning hargiz bo'lurmu humrati zo**y**il.*
Nedur oy safhasi bo'lg'an qoradin dog'lig', go'yo
*Jamoling daftarin yozg'anda bo'lmish bir varaq bo**t**il.*
Mening jurm ichra uzrum shayxning zuhd ichra ujbidin
*Batardur do'st lutfi holima gar bo'lmasa sho**m**il.*
FiG'oni o'qidin bulbulning, ey gulbun, hazar qilkim,
*Tikan paykonig'a gul javshani hargiz emas ho**y**il.*
Navoiy qullug'in faqr ahlining piri qabul etsa,
*Erur bir banda ozod aylagan yanglig'shahi o**d**il* (9, 367-g').

Mazkur g'azal tarkibidagi qofiyadosh so'zlarda, raviy va qisqa unlisidan oldingi turli xil undosh harflar, daxo va "o" unlisi ta'sis hisoblanadi. Ta'sis va daxil qatnashgan qofiya turi **muassas qofiya** deb yuritiladi. Demak, 4-, 6-, 17-, 72-, 87-, 106-, 153-, 198-, 287-, 291-, 348-, 382-, 391-, 394-, 404-, 437-, 460-, 524-, 599-, 601-, 628-, 648- g'azallar ayni shu xususiyatga egadir.

Radif (ar. — izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib boruvchi) — mumtoz she'r unsurlaridan biridir. She'riy misralarda qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi. Radif qofiyada ifoda etilayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallifning g'oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda radif qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. Radif forsiy she'riyatga xos bo'lib, arablarda qo'llanilmaganligi ta'kidlanadi (2, 445).

Alisher Navoiy ijodida radif muhim ahamiyatga ega. "G'aroyib us-sig'ar"devonidagi g'azallarning uchdan ikkinchi qismini radif qo'llanilgan she'rlar tashkil qiladi. Shoir o'z g'azallarida radiflarni mahorat bilan qo'llaydi va bu bilan ularning ohangdorligini oshiradi, masalan:

*Yo'qki ul ko'z qoradur husnung aro, **ey qorako'z***
*Kim, qoshing dag'i erur asru qaro, **ey qorako'z.***
Gar ko'ngullarni jaloyi vatan istar bo'lsang,
*Yesh tugunlarniyu zulfungni tara, **ey qorako'z.***
Qora nargis ko'zu gul yuz bila gar sen kebi yo'q,
*Bulbule men kebi yo'q nag'masaro, **ey qorako'z.***
Ko'zlaring zaxm agar qilmadi har kirpik ila,
*Bas, nedur ko'ngluma yuz yerda yara, **ey qorako'z!***

Menmen-u bir yaramas ko‘nglum, aning qatli uchun
Ko‘z qora qilma, bir ishimga yara, ***ey qorako‘z****?!*
Goh faqr ahlig‘a ham rahm ko‘zi birlan boq
Kim, duogo‘yung erurlar fuqaro, ***ey qorako‘z****.*
Sen Navoiyg‘a vafo aylamasang, bor o‘lsun
Shoh Abulg‘oziy ibin Boyqaro, ***ey qorako‘z*** (9, 218-g‘).

G‘azal tarkibidagi radif, **ey qorako‘z** birikmasi to‘rt bo‘g‘inni o‘z ichiga oladi. Ushbu g‘azal qo‘llanilgan qofiya va radif mohiyatiga ko‘ra **muqayyadi mujaaradi muraddaf (radifli)** deb ataladi. “Demak ridfi asliy, ridfi asliy va ridfi zoyid qatnashgan qofiya turi **murdaf qofiya** deb yuritiladi” (14, 101).

Qofiya kalimasidan so‘ng yuklangan radifli she’r **muraddaf** deb ataladi. Radif bo‘lib keladigan bo‘g‘inlar, ikki harfli qo‘shimcha so‘zdan boshlab bir necha bo‘g‘in yo so‘zga yetib boradi.

Quyida radif voqey bo‘lgan qo‘shimcha, so‘z va birikmalar mavjud bo‘lgan g‘azallar soni berildi: “lar” = 157- va 173-g‘azal, “bo‘lur” mustaqil so‘z = 162-g‘azal, “toma dur” = 170-g‘azal, “lig‘ ko‘nglum tilar” = 177-g‘azal, “sib or” = 191-g‘azal, “dadur” = 197-g‘azal, “siz” = 200-g‘azal, “miz” = 211-g‘azal, “ey qorako‘z” = 218-g‘azal, “lig‘ bilmas” = 238-g‘azal, “din tama’” = 289-g‘azal, “lig‘”= 300- va 301-g‘azal, “moq” = 316-g‘azal, “dung” = 354-g‘azal, “ning” = 355-g‘azal, “ding” = 36-g‘azal, “g‘a ham” = 429-g‘azal, “lig‘im” = 432-g‘azal, “din” = 454-g‘azal, “men” = 455-g‘azal, “sidin” = 480-g‘azal, “lig‘ bila” = 571-g‘azal, “si” = 580-g‘azal, “ni” = 601- va 616-g‘azal, “di yana" = 542-g‘azal, “g‘a”, = 563-g‘azal, “cha” = 570-g‘azal, “ani” = 606-g‘azal”. Yuqoridagi misollar yetarli deb, barcha radifli g‘azallarni keltirmadik.

Badiiy qofiya (san’atli qofiya): badiiy qofiyani o‘rganishda qofiya san’atilari xususida bahs yuritiladi. Qofiya ilmi usuliga asosan *e’not, tajnis, tasje’…* kabi qofiyaviy masalalar maqsad qilib qo‘yilgan. Qofiyaga xos badiiyat she’rdagi lafziy va ma’naviy san’atlar kabi uning uyg‘unlik va ohangdorlik munosabatlarini kuchaytiradi. Badiiy qofiya badiiy so‘z o‘yini kabi muayyan ustunliklarga ega.

Badiiy qofiya mavzulari quyidagilardan iborat:

1. “E’not yo luzumi moloyalzam”: “anat” so‘zi lug‘atda qiyinlik ma’nosini anglatadi. E’not esa bir kishining qiyin ish bajarishga majbur qilishdir. Bunda shoir qofiyadosh so‘zlarni uyg‘unlashtirishidan ilova, “muassas” qofiyada daxil harfi va “muaqyyad mujarra” qofiyada raviydan oldingi harflarni aynan takror keltirishga o‘zini majbur tutadi. Natijada qo‘llanilgan qofiyalar latofat - ibdoiyligi va tuzulishi yaqol seziladi; muassas: qofiyaning daxil harfi aynan bir bo‘lishini istab, **hamoyil, tamoyil, shamoyil …**so‘zlarini qofiya tuzadi, va yo qofiyada raviydan oldingi keladigan harfni aynan bir harf keltirish o‘zini malzum oladi; masalan: **sado, nido, hudo, xudo…** kabi so‘zlarni birovi bilan qofiyalashtirishda ilzoman urinadi. Yo‘qsa daxil harfining aynan bir xil kelishi va yo ravidan oldingi harfning takrorlanishi shart qilinmagan”(14, 127).

Muassas qofiyadagi daxil harfi e’notiga misol:

*Bo‘ynumg‘a qayda qilg‘ay ul oy qo‘lini mo**y**il*
*Kim, basdurur quloda it bo‘ynig‘a hamo**y**il.*
Yuz xo‘b jilva qilsa bormas ko‘zumdin ul oy
*Kim, zarra xayli bo‘lmas hargiz quyoshqa ho**y**il*
Ulkim, kulub ko‘ziga surma chekar ne fikri?
*Gar ko‘z yoshimdin o‘lg‘ay ko‘zning qorasi zo**y**il.*
Noz etki sarvu gulda, bal insu jinda yo‘qtur
*Bu husnu bu latofat, bu shaklu bu shamo**y**il.*
Qil sig‘mas og‘zing ichra ko‘p nukta tong emaskim,
*Nozukrak o‘ldi qildin har so‘zga bo‘lsa qo**y**il.*
Bu shukr uchun karam qil, soyilg‘a, ey g‘aniykim,
*Ermastur ul tavongar, sen xidmatida so**y**il.*
Hijronda bexud istar o‘zni Navoiy, ey shayx,
*Oy-u yil ani usruk ko‘rsang, demaki, o**y**il* (9, 382-g‘).

Yuqoridagi g‘azalda badiiy qofiya usuliga ko‘ra, daxil harfi — aynan “y” tovushi takror qaytarilgan, ushbu qofiya san’ati **e’not (luzumi moloyalzam)** deb ataladi. “Luzumi moloyalzam (bajarilishi shart deyilmagan ishni ilzoman bajarish), ya’ni “moyil” so‘zini “odil” va “botil” so‘zlari bilan qofiyalashtirishda deyarli qofiya usuliga rioya qilgandir. Demak, shoir o‘zini unchalik g‘ayri lozim ishlarga muqayyad qilmagan holda, aybsiz muassas qofiya tuzgan bo‘lardi. Zero, “zulqofiyatayn” she’r shakli ham e’not deb ataladi.

Ikkinchi misol. Muqayyad mujarrad qofiyadagi raviydan oldingi harf e’noti:

*Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hu**d**o,*
*«Yor aksin mayda ko‘r» deb, jomdin chiqti sa**d**o.*
*G‘amzu**d**o, ga**d**o, fi**d**o, ibti**d**o, moa**d**o, a**d**o, zohi**d**o, ni**d**o* (9, 1-g‘).

Yuqoridagi g‘azalda badiiy qofiya usuliga ko‘ra, “d” undosh harfi raviydan oldin aynan takror qaytarilgan, ushbu qofiya ham **e’not (luzumi moloyalzam)** deb ataladi. Devonga kiritilgan 218-g‘azal ham ushbu xususiyatga ega.

Tajnis qofiya: badiiy qofiya usuliga asosan, jinsdosh so‘zlarni qofiyadosh qilib, bayt so‘ngida qo‘llashdan iborat. Tajnis san’atining har bir turi qofiyadosh bo‘lib kelishi mumkin, biroq jinsdosh so‘zlarning to‘liq va muarakkab turiga oid qismi, aynan “tuyuq” shakliga o‘xshab keladi (14, 127).

Qofiya ilmida turli tajnislar (tajnisi tomm, tajnisi noqis, tajnisi zoyid…) ning qofiya o‘rnida keltirish ham badiiy qofiya yo qofiya san’ati hisoblanadi. Tuyuqlarning mutajonis qofiyadoshliklari bunga aniq misol bo‘la oladi.

Zoyid tajnis uchun misol:

*Davr el sog‘arini qildi mayi **nob** to‘la,*
*Juz mening eski safolimniki, **xunob** to‘la* (9, 216-g‘).

“Nob — xunob” jinsdosh so‘zlari raviydosh qilib qofiya o‘rnida keltirilgan. Qofiyada qo‘llanilgan zoyid tajnis turlaridan quyidagi

matla’ baytlar tarkibida mavjud, masalan: “rom — orom”(224-g‘.), “nob — xunob” (32- va 277-g‘.), “ruh — majruh” (102-g‘.), “kom — nokom” (110-g‘.), “yuz — yulduz” (217-g‘.), “zor — guzor” (243-g‘.), “xos — xalos” (271-g‘.), “xalloq — axloq” (309-g‘.), “amon — yamon” (443-g‘.), “sori — ruxsori” (625-g‘azallar).

Murakkab tajnis uchun misol:

Har labing o‘lganni tirguzmakda, ***jono, jon*** *erur,*
Bu jihatdin bir-birisi birla ***jonojon*** *erur* (9, 168-g‘).

“Jono, jon — jonojon” qo‘shma jinsdosh so‘zlar raviydosh qilib qofiya o‘rnida keltirilgan.

2. Ma’mula yoki ja’liy qofiya: shoirning tug‘ma iste’dodi mahsuli vositasida, aslida, raviy bo‘lmagan harfni, raviy qilib keltiradi. Natijada, qofiyaning pishiqligi va badiiy mukammalligi qo‘llanilgan raviydan aniqlanadi. Yoki ma’mula yo ja’liy qofiya deganda, raviy harfi shoirning mahorati bilan o‘ziga xos tarzda qo‘llaniladi, zotan, raviy bo‘lmagan harf, raviy qilinadi. Keltirilgan raviy harfining ta’siri sabab, qofiya latofati ochiq va oydin ko‘rinadi.

Ma’mula yoki ja’liy qofiya ayrim yo‘llar orqali vujudga keladi: 1) ikki so‘z tarkibidan; 2) bir so‘z tajziyasidan (ajralishidan); uch) qofiya va radifning tajziya va tarkibidan.

Ikki so‘z tarkibidan tashkil topgan ja’liy qofiyaga misol:

Ey deb sifatigda ahli idrok,
Lav loka la-mo xalaqt-ul-aflok.

…idrok, … “**lav lok**”, …xoshok, …bok, …chok qofiyalari bilan davom etgan g‘azal *Juz ajz ila uzri mo arafnok* (8, 127–131**)** misrasi bilan tugaydi.

Belgilangan “lavlok va arafnok” so‘zlari, ma’mula yo ja’liy qofiya deb ataladi. Ushbu arabcha so‘zlarning har biri uchta so‘z tarkibidan tashkil topgan. Qofiyadagi so‘nggi “k” harfi raviy hisoblanadi va “k” harfi ushbu so‘zlarda negiz harf (harfi asliy) sanalmaydi, balki u kishilik olmoshi ifodachisidir. Shoirning badiiy malaka va ko‘nikmasi sabab boshqa tub so‘zlar mahorat bilan raviydosh qilib keltirilgan.

“Zulqofiyatayn (ikki qofiyali) **—** ikki qofiyaga asoslangan she’riy san’at. Badiiy qofiya usuliga ko‘ra zuqofiyatayn, ya’niy “e’not” demakdir. Ba’zan zulqofiyatayn she’r, musajja’ she’riy san’at kabi, qofiyaga tegishli emasligi ta’kidlanadi. Chunki u lafziy san’atlardan hisoblanadi. Biroq, qo‘llanilgan qofiyaning badiiyligiga asosan zuqofiyatayn va musajja’ she’r, qofiya san’ati sirasiga kiradi (14, 131).

“Zuqofiyatayn she’rning ifodaliligini oshirib, musiqiyligini kuchaytiradi. Shoirdan katta mahorat va san’atkorlikni talab qiladi. Alisheri Navoiy G‘aroyib us-sig‘ar devonidagi g‘azallarda bu badiiy san’atdan mohirlik bilan foydalanilgan” (1, 198).

Zulqofiyataynga misollar:

Zor jismimg‘a xadanging zaxmidin *ortar* **navo**

Sozdekkim, teshsalar ani fuzun *aylar* **sado**.
Ne tong uzorim agar sarg‘arib, *qizardi* **yoshim**
Ki, yuz qoralig‘u isyon bila *oqardi* **boshim**.
La’lu g‘amzang birla baskim *nuktadon* **ustodsen**,
Bir nafas borsen Masiho, bir *zamon* **jallodsen**.
Ey sabo, ko‘zdin uchur *Mozandaronning* **vardini**,
Kim, qilibmen surma Marvi shohi *jonning* **gardini**.

Yuqoridagi matla’ baytlarda asosiy qofiyadan tashqari yana bitta qofiyadosh so‘z keltirilgan. Ba’zan asosiy qarinaga ilova, ikki qofiya va hatto bayt tarkibidagi butun so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘lib keladi. Shuningdek ba’zan ikki qofiya o‘rtasiga hojib tushib qolishi ham mumkin. To‘liq g‘azal, qasida va boshqa turdagi she’rni ham zuqofiyatayn qilib ijod etish mumkin. Ammo bu shoirdan katta mahorat va san’atkorlikni talab qiladi. Navoiy yetuk san’atkor shoir sifatida quyidagi g‘azalida to‘liq zuqofiyatayndan foydalangan:

La’l-u g‘amzang birla baskim nuktadon ***ustod****sen,*
Bir nafas borsen Masiho, bir zamon ***jallod****sen.*
La’li shavqidinki g‘am tog‘in qozarsen, ey ko‘ngul,
Ne balo Shirin havaslik notavon ***Farhod****sen.*
Ahli dillar chehrasi oltun, sirishki siym erur,
Toki siymi nob aro qilding nihon ***po‘lod****sen.*
Nargisingdin bir nazar qilg‘ilki asru bir yo‘li
Qullaring holidin, ey sarvi ravon, ***ozod****sen.*
Nayshakardek qaddinga, vah, bargni to‘n demakim,
Ishqpechon bargida bo‘lg‘an nihon ***shamshod****sen.*
Xurram o‘lmassen sumurmay bir qadah, eykim, mudom
Charxdin ko‘nglung bo‘lub yuz laxt qon ***noshod****sen.*
Ey Navoiy, jisminga paykonlaridin langar et,
Yo‘qsa bu ohing yelidin nogahon ***barbod****sen* (9, 483-g‘).

3. “Tasji’ (Musajja’): shoir har bir baytni to‘rtga bo‘lib, birinchi, ikkinchi va uchinchi bo‘laklarni saj’ yo‘li bilan o‘zaro qofiyalaydi, so‘nggi — to‘rtinchi bo‘limni esa she’rning asosiy qofiyasiga moslab tugatadi. Muvozana ko‘rinishidagi bunday she’r **musajja’ she’r** deyiladi. Demak, bunday she’rda yon qofiyadan boshqa uchta ichki qofiya qo‘llaniladi, masalan:

Gulxan kuli ichra ***nihon****, jismim junundindur* ***nishon****,*
To telbalik barqi ***ayon*** *bo‘lg‘ach kuyuptur xirmanim.*
To ishq aro ***afsonamen****, o‘t ichraki* ***devonamen****,*
Ul sham’ uchun ***parvonamen****kim, bo‘lmish o‘rtanmak fanim.*
Ul sho‘x sekritti ***samand****, ermas nasihat* ***sudmand****,*
Har do‘st bersa emdi ***pand****, uldur ulug‘roq dushmanim.*
May ichkali ul ***no‘shlab*** *zohir qilur har dam* ***tarab****,*
Bu nav’ ochilmoq ne ***ajab****, andoq su ichkan gulshanim.*
Chun odamiyda yo‘q ***vafo****, ko‘r ul pariy ishqi* ***aro***
Javlongahim dashti ***fano****, vayronayi g‘am maskanim.*
Ram tig‘idin qochmoq ***havas*** *qilma, Navoiy, har* ***nafas****,*
Ul tiyg‘ning daf’ig‘a ***bas****, yuz pora xirqa javshanim (9, 424-g‘).*

“G‘aroyib us-sig‘ar” devonga kiritilgan 488-, 505-, 591-g‘azallar ichki va yon qofiyali (musajja’) g‘azallar hisoblanadi. She’rning ohangdorligini kuchaytirishga imkon beradigan bunday vositalar uning kitobxon tomonidan oson yod olinishi va uzoq muddat yodda saqlab qolish uchun yaxshi imkoniyat berishi ham mumkin.

4. “Hojib (ar.) — pardador**,** berkituvchi. Mumtoz she’r unsurlaridan biri. She’riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanuvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shimchasi. Ba’zan hojib ikki qofiya o‘rtasiga tushib qolishi ham mumkin. Hojib qo‘llanilgan she’r **mahjub** deb ataladi. Ikki qofiya o‘rtasiga hojib kelgan she’rni **zuqofiyatayni mahjub** deb ataydilar. Mumtoz poetikaga doir manba’larda hojibning bir ma’noda ishlatilishi uning shartlaridan hisoblangan”(2). Qofiyadan oldin bir lafz va ma’noda aynan takrorlanib keladigan so‘z hojib deb ataladi. Shams Qays Roziy “**Al mo‘jam”** asarida quyidagi ruboiyni zikr etib, yozadi: “Alhaq dar san’ati taqobul behtar azin naguftaand”.

Ey shohi zamon bar osmon doriy taxt,
Sust ast a du to tu kamon doriy saxt.
Hamla sabuk oriy-u giron doriy raxt,
Piriy tu batadbir-u javon doriy baxt.

Bunda birinchi qofiya “osmon” va “kamon” va “giron” va “javon” dir. Ikkinchi qofiya esa “taxt” va “saxt” va “raxt” va “baxt” dir. Har to‘rt misrada aynan bir ma’noda takrorlanilgan “doriy” so‘zi **hojib**dir. Hojibli qofiyani **mahjub** deydilar (8, 168–169). “G‘aroyib us-sig‘ar” g‘azallarida 16ta **mahjub va mahjub zuqofiyatayn** baytlar yozilgan. Misol:

Mahjubga oid bayt:

Ko‘ngluma kelmas xazoniy bog‘aro ***noranjxush****,*
Kim, xazoni hajr aro bo‘ldi yuzum ***noranjvash****.*

Yuqoridagi baytda “xush — vash” so‘zlari qofiya va ulardan oldingi takror qaytarilgan “noranj” so‘zi hojibdir. Ushbu badiiy o‘zallik **mahjub** deyiladi. Quyida zuqofiyatayni mahjub baytdan bir namuna:

Ey sabo, ko‘zdin uchur **Mozandaron***ning* **vard**ini
Kim, qilibmen surma Marvi shohi **jon***ning* **gard**ini.

Yuqoridagi baytda birinchi qofiya “Mozandaron va jon” so‘zlari bo‘lsa, ikkinchi qofiya “vard va gard” so‘zlaridir. Ikki qofiya orasidagi ikki martaba takror qaytarilgan “ning” so‘zlari hojibdir. Demak, ushbu qofiya **zuqofiyatayni mahjub** deb ataladi. Endi Navoiy devonidagi mahjub baytlarni keltirmasdan, hojib so‘zlar va mahjub baytlar sonini taqdim etamiz: “to” so‘zi = 133-g‘azal, “kim” so‘zi = 223 va 372-g‘azal, “bila” so‘zi = 308-g‘azal, “anga” so‘zi = 377-g‘azal, “bila” so‘zi = 452-g‘azal, “ning” so‘zi = 519-g‘azal, “ila” so‘zi = 568 va 609-g‘azal, “tong” so‘zi = 579-g‘azal, “mendin” so‘zi = 585-g‘azal.

5. “Radd ul-qofiya: (qofiyaning takrorlanishi) — g‘azal yoki qasida matlasidagi qofiyaning undan keying baytlardan birida yoki maqta’da takrorlanishiga asosolangan badiiy san’at. Ko‘pincha fan olimlariga ko‘ra qofiyaning qaytarilishi ieto aybi deb e’tirof etiladi. Keyin “agar takrorlanuvchi qofiyalar orasida muayyan masofa bo‘lsa (g‘azal va qi’ada 7 baytdan keyin, qasidada esa 14–20 baytdan keyin) yoki she’r ikki matla’ga ega bo‘lsa (she’r o‘rtasida yana bir qo‘sh qofiyalanuvchi bayt kelsa), ietodan foydalanish mumkin degan umumiy xulosa aytiladi”, — deb ta’kidlaydilar” (1, 441).

“G‘aroyib us-sig‘ar” g‘azallarida ushbu san’at ancha faol qo‘llanilgan. Devonda uning 100ga yaqin namunalarini uchratish mumkin. Shoir she’riyatida radd ul-qofiyaning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

1. G‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchi baytda takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya:

*Bahor sensiz o‘luptur manga ajab **do‘zax**,*
Qizil gul anda o‘tu oq shukufalardur yax.
Bahor sensiz agar do‘zax o‘lsa tong ermas,
*Bihisht ichinda liqo bo‘lmasa erur **do‘zax*** (9, 108-g‘)

G‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchi baytda takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya so‘zlar va g‘azallar soni: “o‘lmak” so‘zi = 11-g‘azal, “mubtalo” so‘zi = 16-g‘azal, “Jayhun” so‘zi = 20-g‘azal, “nob” so‘zi = 32-g‘azal, “lab” so‘zi = 45-g‘azal, “habib” so‘zi = 49-g‘azal, “ayb” so‘zi = 51-g‘azal, “moh” so‘zi = 63-g‘azal, “qildi” so‘zi = 70-g‘azal, “unut” so‘zi = 71-g‘azal, “bot” so‘zi = 73-g‘azal, “bebok” so‘zi = 81-g‘azal, “ranj” so‘zi — 92-g‘azal, “ruh” so‘zi = 102-g‘azal, “aqdoh” so‘zi = 103-g‘azal, “gulgun” so‘zi = 105-g‘azal, “toza ruh” so‘zi = 106-g‘azal, “do‘zax” so‘zi = 108-g‘azal, “tafakkur” so‘zi = 132-g‘azal, “qanotim” so‘zi = 133-g‘azal, “jon” so‘zi = 156-g‘azal, “solur” so‘zi = 169-g‘azal, “qon” so‘zi = 170-g‘azal, “borur” so‘zi = 174-g‘azal, “qilur” so‘zi = 178-g‘azal, “tob” so‘zi = 194-g‘azal, “g‘amsiz” so‘zi = 200-g‘azal, “qila” so‘zi = 203-g‘azal, “tez” so‘zi = 210-g‘azal, “mahzun” so‘zi = 222-g‘azal, “resh” so‘zi = 248-g‘azal, “xush” so‘zi = 256-g‘azal, “noranj” so‘zi = 263-g‘azal, “chirmashib” so‘zi = 270-g‘azal, “xos” so‘zi = 271-g‘azal, “rabot” so‘zi = 280-g‘azal, “xat” so‘zi = 281-g‘azal, “darig‘” so‘zi = 295-g‘azal, “chavgon” so‘zi = 312-g‘azal, “chok” so‘zi = 313-g‘azal, “urmoq” so‘zi = 316-g‘azal, “bas” so‘zi = 320-g‘azal, “idrok” so‘zi = 322-g‘azal, “so‘zi” so‘zi = 331-g‘azal, “dadnok” so‘zi = 324-g‘, “gahing” so‘zi = 339-g‘, “teng” so‘zi = 344-g‘azal, “joviyd” so‘zi = 347-g‘azal, “yod” so‘zi = 353-g‘azal, “tutung” so‘zi = 362-g‘azal, “o‘ng” so‘zi = 363-g‘azal, “xasta” so‘zi = 377-g‘azal, “mul” so‘zi = 383-g‘azal, “qilmadi” so‘zi = 399-g‘azal, “yuragim” so‘zi = 400-g‘azal, “dardim” so‘zi = 421-g‘azal, “alamon” so‘zi = 443-g‘azal, “lol” so‘zi = 445-g‘azal, “sarvi ravon” so‘zi = 447-g‘azal, “shaydo” so‘zi = 481-g‘azal, “tahrir” so‘zi = 486-g‘azal “xursand” so‘zi = 487-g‘azal, “sargardon” so‘zi = 499-g‘azal, “partav” so‘zi = 516-g‘azal, “jonima” so‘zi = 525-g‘azal, “olud” so‘zi = 538-g‘azal, “soldi” so‘zi

= 542-g‘azal, “lola” so‘zi = 551-g‘azal, “bedod” so‘zi = 559-g‘azal, “mushavvash” so‘zi = 571-g‘azal, “isboti” so‘zi = 575-g‘azal, “pari” so‘zi = 576-g‘azal, “day” so‘zi = 581-g‘azal, “betob” so‘zi = 586-g‘azal, “jon” so‘zi = 591-g‘azal, “noz” so‘zi = 595-g‘azal, “rahnavardingni” so‘zi = 615-g‘azal, “guli” so‘zi = 622-g‘azal”.

2. G‘azal birinchi misrasidagi qofiyaning ikkinchi baytdan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan radd ul -qofiya:

Yuz tuman mehnat o‘qi anduhlug‘ ***jonimdadur****,*
To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.
Hojatim budur, xudoyokim, karomat qilg‘asen,
Notavon jonimg‘a har zahmatki, jononimdadur.
Dard menda sendin ortuq bo‘lsa, jono, ne ajab
Kim, sening jismingdadur zahmat, mening ***jonimdadur*** (9, 150-g‘).

G‘azaldagi birinchi misra qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya so‘zlar va g‘azallar soni: “bog‘inda” so‘zi = 28-g‘azal, “kin” so‘zi = 54-g‘azal, “bisyor” so‘zi = 123-g‘azal, “zamon” so‘zi = 129-g‘azal, “asir” so‘zi = 145-g‘azal, “jonimda” so‘zi = 150-g‘azal, “qolur” so‘zi = 189-g‘azal, “tobi” so‘zi = 190-g‘azal, “tosh” so‘zi = 245-g‘azal, “bog‘” so‘zi = 298-g‘azal, “notavon” so‘zi = 314-g‘azal, “yiroq” so‘zi = 317-g‘azal, “jonondin” so‘zi = 328-g‘azal, “xayoling” so‘zi = 416-g‘azal, “dardnok” so‘zi = 463-g‘azal, “tutubmen” so‘zi = 470-g‘azal, “badan” so‘zi = 475-g‘azal, “gardun” so‘zi = 496-g‘azal, “xandoni” so‘zi = 517-g‘azal, “zorg‘a” so‘zi = 564-g‘azal, “g‘am” so‘zi = 618-g‘azal”.

3. G‘azal matlasidagi ikkinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya:

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduhu ***pushaymon****lig‘da hayf.*
6-bayt:
Andoq ish qilkim, pushaymon bo‘lmag‘aysenkim, emas
Hech osig‘chun ish xato bo‘ldi ***pushaymon****lig‘da hayf* (9, 303-g‘).

G‘azal matlasidagi ikkinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keying baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya so‘zlar va g‘azallar soni: “davron so‘zi = 125-g‘azal, “fosh” so‘zi = 242-g‘azal, “qadam” so‘zi = 286-g‘azal, “notavon” so‘zi = 413-g‘azal, “zor” so‘zi = 434-g‘azal, “boda” so‘zi = 460-g‘azal, “ham” so‘zi = 465-g‘azal, “jononimdin” so‘zi = 584-g‘azal, “gardini” so‘zi = 637-g‘azal, “gado” so‘zi = 641-g‘azal, “ochilmadi” so‘zi = 642-g‘azal”.

4. G‘azal matla’sidagi qofiyalardan birining maqta’da takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya:

Iloho, podshoho, ***kirdigoro****,*
Sanga ochug‘nihonu oshkoro.
Qiyomatda gunohim afv etarga
Rasulingni shafi’ et, ***kirdigoro*** (9, 5-g‘).

G‘azal matlasidagi qofiyalardan birining maqta’da takrorlanishiga asoslangan radd ul-qofiya so‘zlar va g‘azallar soni: “kirdigoro so‘zi = 5-g‘azal, “bor” so‘zi = 12-g‘azal, “yutub” so‘zi = 53-g‘azal, “poybast” so‘zi = 76-g‘azal, “dilorom” so‘zi = 84-g‘azal, “bisyor” so‘zi = 109-g‘azal, “olud” so‘zi = 137-g‘azal, “gohlar” so‘zi = 149-g‘azal, “lolalar” so‘zi = 152-g‘azal, “bechora” so‘zi = 177-g‘azal, “diliston” so‘zi = 179-g‘azal, “qildi” so‘zi = 185-g‘azal, “boqiy” so‘zi = 205-g‘azal, “halok” so‘zi = 247-g‘azal, “illo” so‘zi = 267-g‘azal, “haris” so‘zi = 272-g‘azal, “zor” so‘zi = 297-g‘azal, “halok” so‘zi = 329-g‘azal, “labing” so‘zi = 341-g‘azal, “yoshim” so‘zi = 396-g‘azal, “nolishim” so‘zi = 417-g‘azal, “olamni” so‘zi = 511-g‘azal, “mahol” so‘zi = 647-g‘azal”.

Xulosa. Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan 650 g‘azal tarkibida joylashgan 4975 baytning qofiyasida, o‘zbekcha, arabcha va forscha so‘z va birikmalar istifoda etilgan. Devondagi g‘azallar, asosan, 5 baytdan 13 baytgacha. Shundan, 7 baytli g‘azallar soni 434 ta bo‘lsa, qolgan qismini — 13 baytli 1ta g‘azal, 11 baytli 11 ta g‘azal), 10 baytli 8 ta g‘azal, 9 baytli 163 ta g‘azal, 8 baytli 30 ta g‘azal, 6 baytli 1 ta g‘azal, (5 baytli 2 ta g‘azal tashkil etadi. Devon tuzish tartibi va talablariga ko‘ra, g‘azallar, asosan, alif (الف) harfidan boshlanib, yo (ى)ga qadar “33” harf radifiga she’r mavjud. She’rlarning eng ko‘pi yo (ى) harfi bilan yakunlangan g‘azallardirki, ularning soni 76-taga yetib boradi. j (ژ) harfi bilan faqatgina 222-g‘azal yozilgan.

Shoir o‘z betakror g‘azallarida mohirlik bilan qofiya qo‘llaydi, bunda ridfi asliy, ridfi zoyid, qaydli qofiya, muqayyad qofiya turlari, muqlaq qofiya va uning turlari, muzoaf qofiya, muassas qofiya, muraddaf kabi turli xil qofiyalardan namunalar keltiradi. Musajja’ g‘azallarni unutmasdan, atayin mahjub baytlar, zulqofiyatayn baytlar va g‘azallar, e’not va ma’mula singari badiiy qofiyali san’at tuzadi. Shoir qofiya ilmining murakkabligini aniq tushunib, bag‘oyat badiiylashtirish uchun arabcha va forscha so‘zlarni o‘zbekona tarzda ma’nus va mutanosib qo‘llaydi.

Qofiya — misralar so‘ngida uyg‘unlashib kelgan so‘zlarning eng so‘nggi o‘zgarmas — asliy harflaridir. Shunga asosan, so‘z so‘ngidagi harflardan oldin keladigan unli yo undosh tovush o‘zgarishidan qofiyadosh so‘zlar paydo bo‘ladi. Masalan, “yoz” so‘zida qofiyadosh so‘zlar keltirish uchun birinchi “y” harfini almashtirish yetarli. Ya’niy “n” + oz = noz, “s” + oz = soz… kabi qofiyadosh so‘zlar vujudga keladi. Qofiyaning negizi ushbu asosiy nuqtaning aniq va yaqqol sezish va idrok etishdir.

Bir bo‘g‘inli qofiyadosh so‘zlarda birinchi harfining o‘zgarib kelishi shart (san — man) kabi bir bo‘g‘inli so‘zlarda, birinchi harflar o‘zgarib kelmagan holda, so‘zlarning ma’nodosh bo‘lib keltirilmasligi lozim, masalan: “tom” (xona), “tom” (to‘la, to‘liq, butun, mukammal)… . Ammo bir necha hijoli qofiyada birinchi harfning o‘zgarib kelishi mumkin (parvona, devona…).

“u” (و), “h” (ه)“y” (ى) tovushlari, bir bo‘g‘inli so‘zlarda yaxlit qofiya hisoblanib, harflar surati aynan bitiladi; masalan: shu, bu, u, hu… vah, gah, rah, mah… may, day, qo‘y, to‘y… .

Bir bo‘g‘inli muqayyad qofiyalarda “y” va “v” (و - ى) unlisi qayd harfi hisoblanadi; masalan: (ayt — bayt, savr — javr, xavf — javf … kabi so‘zlar. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida “qayd” harflaridan to‘rttasi quyidagi g‘azallarda ishlatilgan: “y” unlisi “ayb va g‘ayb…” so‘zlarida 51-g‘azal; “s” harfi “bast va dast…” so‘zlarida 76- va 88-g‘azal; “n” harfi “ranj va ganj…” so‘zlarida 92-, 135- va 346-g‘azal; “r” harfi “zardim va gardim…” so‘zlarda 349- va 637-g‘azal. Biroq ridflar uchun “o‘” harfidan boshqa to‘liq namanalar mavjud.

“Hoyi havvaz” (ھ)harfi qofiya bo‘lib kelsa-da, keltirilgan qofiya va baytning ma’no talabiga ko‘ra, "ھ"harfining qofiya hisoblanishi ham mumkin, ham mumkin emas; masalan: “Iloh, Alloh, joh, moh… so‘zlardagi so‘ngi “h” harfi qofiya sanalib, lafz va yozuvda mavjud bo‘lishi kerak, bo‘lmasaa, asliy ma’no yo‘qolib, xato ma’no yuzaga chiqadi; masalan: “Iloh: tangri — xudo. Ilo: to // gacha”. Moh: oy. Mo: biz… shunga o‘xshash ko‘zlanmagan ma’nolar paydo bo‘ladi. Shuningdek “gah, vah, shah, mah… singari ayrim so‘zlar bor.

Qofiyadosh so‘zlardan keyin aynan takror qaytariladigan bir yo bir necha so‘z radif deb ataladi. Harakatsiz raviydan keyin aynan takror kelgan ikki harfli so‘z bo‘lsa ham radif deyiladi; masalan: “yafrog‘cha — tufrog‘cha qofiyadosh so‘zlarda “**g‘”** harfi raviy va -**cha** qo‘shimchasi radif hisoblanadi. Qofiya mavsula bo‘lgan holda, vasl harfi bo‘lsin va yo qo‘shimcha so‘z, mustaqil bir so‘z yo birikma bo‘lishi lozim. Chunki vasl harfiga mazid, noyiralar qo‘shilib kelishi mumkin.

Devonda qofiyadan keyin keltirilgan radiflar soni 270dan ortiq bo‘lib, ular 500 yuzga yaqin muraddaf g‘azallarda qo‘llanilgan. Bulardan — 217tasi o‘zbekcha, 23tasi arabcha va 19tasi forscha radiflar so‘zlardan iboratdir. Qofiyalarda esa aksincha, ularning ko‘p qismi arabcha, undan keyingi o‘rinda forsiy va eng kami o‘zbek tilidagi so‘zlardan tashkil topgan.

Devon tarkibida joylashgan g‘azallarning badiiy qofiya va qofiya san’atlariga bog‘lab tadqiq etish Alisher Navoiy g‘azallari va, umuman, o‘zbek mumtoz adabiyoti imkoniyatlari ko‘lamini anglab yetishga ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат. Биринчи жилд. — Toshkent: SHARQ NMAK, 2016. — 534 б.
2. Алишер Навоий. Қомусий луғат. Иккинчи жилд. — Toshkent: SHARQ NMAK, 2016. — 480 б.
3. Aliakbar Dehxudo. Lug‘atnoma. 25-jild. Chopi duvvum az davrayi jaded. —Tehron: Muassisaiy intishorot va chopiy donishgohi Tehron. 1377 hijr. — 23911b.
4. Aminiy Muhammadkozim. Adabiy fanlar (badiy va bayon qismi). — Maymana: Bangoh chop shamol:Nashriyayi ozodi Maymana, 1390 hijr. —180 b.
5. Ahmad Najod Komil. Fununi adabiy. — Tehron: Intishoroti Poyo, 1382-hijr. — 162 b.

6. Ishonch Zikrullah, Muhammad Olim Ko‘hkan. O‘zbek adabiyoti farhangi. — Foryob: Foryob davlat matba’asi: Amir Alisher Navoiy Farhangi anjumani nashriyoti, 1374 hijr. — 370 b.
7. Kalimoti Qur’oni karim. — Qum: Usva, 1388 hijr. —800 b.
8. Madadiy Hasan. Aruz va qofiya. —Tehron: Intishoroti tiyrgon, 1385 hijr. — 216 b.
9. Navoyi Nizomuddin. G‘aroyib us-sig‘ar. Ikkinchi jild. — Moliziyo: Global partners, 2008. — 479 s.
10. Oltoy Nurullah. O‘zbek tili so‘zligi. — Moliziyo: Global partners, 2007. — 420 b.
11. Ranjbar, Ahmad. Badiiy. — Tehron: Asotir, 1385 hijr. — 139 b.
12. Sanoyi G‘aznaviy, Muhammadakbar. Gulistoni latofat. Birinchi nashr. — Peshovar: Mayvan intishoroti, 1382 hijr. —190 b.
13. Xurosoniy Muhammadhorun. Badiiy va bayon. —Kobul: Intishoroti Obid va intishoroti Muhammad Rafiq, 1394 hijr. — 211 b.
14. Shamiso Sirus. Nigohi tozayi ba badiiy. O‘n to‘rtinchi nashr. — Tehron: Intishoroti Firdavs, 1381 hijr. — 211 s.
15. Qahramoniy Muqbil. Aruz va qofiyayi arabiy. —Bushehr: Donishgohi Xalij fors, 1390 hijr. —189 b.
16. Hafiziy Javzjoniy, Muhammad Yahyo. Adabiy fanlar. —Javzjon: Zahiruddin Muhammad Bobur anjumani nashriyoti, 1378 hijr. —162 b.

Refrences

1. Alisher Navoii. *Komusii lugat. Birinchi zhild* (Encyclopedic dictionary. The first volume), Toshkent: SHARQ NMAK, 2016, 534 p.
2. Alisher Navoii. *Komusii lugat. Ikkinchi zhild* (Encyclopedic dictionary. The volume two), Toshkent: SHARQ NMAK, 2016, 480 p.
3. Aliakbar Dehxudo. *Lugatnoma. 25-jild. Chopi duvvum az davrayi jaded* (Dictionary, Volume 25, Chopi duvvum az davrayi jaded), Tehron: Muassisaiy intishorot va chopiy donishgohi, Tehron. 1377 hijr, 23911p.
4. Aminiy Muhammadkozim. *Adabiy fanlar (badiy va bayon qismi)* (Literary sciences (artistic and descriptive part)), Maymana: Bangoh chop shamol: Nashriyayi ozodi Maymana, 1390 hijr, 180 p.
5. Ahmad Najod Komil. *Fununi adabiy* (Fununi is literary), Tehron: Intishoroti Poyo, 1382-hijr, 162 p.
6. Ishonch Zikrullah, Muhammad Olim Kuhkan. *Uzbek adabiyoti farhangi* (Culture of Uzbek literature), Foryob: Foryob davlat matba’asi: Amir Alisher Navoiy Farhangi anjumani nashriyoti, 1374 hijr, 370 p.
7. *Kalimoti Qur’oni karim* (Qur'an are holy), Qum: Usva, 1388 hijr, 800 p.
8. Madadiy Hasan. Aruz va qofiya (Aruz and rhyme), Tehron: Intishoroti tiyrgon, 1385 hijr, 216 p.
9. Navoyi Nizomuddin. *Garoyib us-sigar. Ikkinchi jild* (An amazing cigar. The second volume), Moliziyo: Global partners, 2008, 479 p.

10. Oltoy Nurullah. *Uzbek tili suzligi* (Uzbek language dictionary), Moliziyo: Global partners, 2007, 420 p.
11. Ranjbar, Ahmad. *Badiiy* (Artistic), Tehron: Asotir, 1385 hijr, 139 p.
12. Sanoyi G‘aznaviy, Muhammadakbar. *Gulistoni latofat* (Gulistoni lafatat. First edition), Peshovar: Mayvan intishoroti, 1382 hijr, 190 p.
13. Xurosoniy Muhammadhorun. *Badiiy va bayon* (Fiction and narrative), Kobul: Intishoroti Obid va intishoroti Muhammad Rafiq, 1394 hijr, 211 p.
14. Shamiso Sirus. *Nigohi tozayi ba badiiy. O‘n to‘rtinchi nashr* (His look is purely artistic. Fourteenth edition), Tehron: Intishoroti Firdavs, 1381 hijr, 211p.
15. Qahramoniy Muqbil. *Aruz va qofiyayi arabiy* (Aruz and rhyme are Arabic), Bushehr: Donishgohi Xalij fors, 1390 hijr, 189 p.
16. Hafiziy Javzjoniy, Muhammad Yahyo. *Adabiy fanlar* (Literary sciences), Javzjon: Zahiruddin Muhammad Bobur anjumani nashriyoti, 1378 hijr, 162 p.